



GULJAMOL ASQAROVA SHE'RIYATIDA HAYOTDAN MAMNUNLIK HOLATINI IFODALOVCHI LUG'AVIY BIRLIKLAR VA ULARNING SEMANTIKASI

Isroilova Chamanoy Abdug'osi qizi

O'zbek she'riyati, azaldan o'zining g'oyaviy-estetik mazmunining chuqurligi, insoniyatning taqdiridagi turfa masalalarini hal qilish uchun tinimsiz intilishi, har bir shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati va uni tasvirlashning to'g'riligi, samimiyligi bilan ajralib turadi. Shoirlar o'zbek she'riyatida ayol obrazini yaratishda, uning ruhiy kechinmalari orqali xalqimizning eng yaxshi xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladilar. Ayolga, uning ruhiyatiga, ichki kechinmalariga, go'zalligiga adabiyotda juda muhim va favqulodda rol berilgan. Ayol hayratga tushadi, ayol - ilhom manbai, u orzu qilingan orzu va dunyodagi eng ulug'vor timsol. Ayol bo'lmasa, go'zal she'riyat bo'lmasdi. Shuning uchun jahon san'ati va adabiyotidagi eng go'zal va betakror san'at asarlarida ayol siymosi, uning tuyg'ulari mujassam. Ayolning betakror mehr-u muhabbati kishini hayratga soladi, zavq beradi, ilhom bag'ishlaydi. Ayolning ruhiyatini anglash mushkul, u kulib turib yig'lashi mumkin, yoki aksincha. Atoqli shoirimiz Guljamol Asqarovaning o'ziga xos she'riyatida ayol ruhiyatini, uning botiniy olamiga nazar solishda, oddiy leksik birliklar ishtirok etadi, bu shoironing o'ziga xos uslubi, badiiyatidan darak beradi:

... Ishonaman, uning ishqidan

Yuragimga bahor o'tadi.¹

Shoira “Ertak fasli” nomli she'rida shahzodasining ishqidan yuragiga bahor o'tishini, ya'ni ishqdan uning qalbi yosharishi, go'zal tuyg'ularni his qilishini oddiy leksik birliklarni mahorat bilan qo'llab, betakror satrlarni yuzaga keltirgan.

O'xshatish- poetik matnlar tilning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri. Ular vositasida muallif fikrlari obrazli tarzda o'quvchiga yetkaziladi, kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish amalga oshiriladi, asar tilining emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi, muallif individual uslubi o'z poetik tasviriga ega bo'ladi. O'xshatish deganda “ikki narsa yoki voqea- hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash” tushuniladi². Guljamol Asqarova she'riyatida qo'llanilgan o'xshatishlar o'zining betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq-u shavq bag'ishlaydi.

Ma'lumki, tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan har xil o'zgarishlar, hayotdagi turli xil insoniy munosabatlar kishi xarakteriga, uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Ana shu tashqi ta'sir kishi ruhiyatida har xil holatlarning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. Inson ruhiyati juda serqirra bo'lib, u shodlik, g'azab, xafalik, loqaydlik kabi turli holatlar

¹ Asqarova G. Dil fasli. She'rlar. T.: cho'lpon. 1998

² Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. B.239



majmui sanaladi. Shundan kelib chiqib, tilimizdagi ruhiy holat ifodalovchi sifat leksemalarni³ bir qator turlarga ajratish mumkin:

Xursandlik holatini ifodalovchi sifatlar kishi, xususan ayol ruhiyatidagi oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, leksik-semantik guruhga birlashadi: *xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur* kabilar. Xursandlik ifodalovchi bunday sifat leksemalar orasida xursand uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, dominant leksema hisoblanadi. Bu so'z og'zaki va yozma nutqda, adabiy tilning turli vazifaviy uslublarida keng qo'llaniladi. Guljamol Asqarovaning she'riyatida xursandlik ifodalovchi leksik birliklar u qadar ko'p emas. Shoiraning 2010 -yilda nashr etilgan “Turnalar yo'li” she'riy to'plamida dastlabki she'r “Baxtli qiz qo'shig'i” xursandlik ifodalovchi leksemalar qo'llangan, she'r o'z nomi bilan tamomila uyg'un kelgan:

*Yursam to'rt tarafim gulzor bo'ladi,
Gullayman, har kunim bahor bo'ladi,
So'z aytsam ash'oru alyor bo'ladi,
Men shu go'zal yurtning baxtli qiziman!*⁴

Mamnunlik holatini ifodalovchi sifat leksemalar esa shoiraning she'rlarida ko'p o'rinlarda qo'llanilmagan. Guljamol Asqarova she'riyatining katta qismi *maxzunlik, g'amginlik, ayriliq, yolg'izlik* kayfiyatida bo'lsa-da, uslubning betakror ekanligi bilan ajralib turadi.

*Mehr bu Tangrining ehsoni, nuri!
Olam bor, Xudo bor, bor ekan shu nur.
Toza yuragingiz uchun ming rahmat,
Mehribon qalbingiz uchun tashakkur.*

Mazkur she'rda esa quyidagicha sinonimlar mavjud.

Tangri, Xudo, rahmat hamda tashakkur. Bizningcha, biz bu she'rdagi *mehr* va *nur* so'zlarini kontekstual sinonimlar qatoriga kiritsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi har birimiz quyoshning issiq taftini mehr timsoliga qiyos etamiz. Shu vaj bilan ham biz mazkur ikki so'zning ma'nodoshligini issiqlik, iliqlik so'zlari atrofida to'qnashgan deya olamiz. Shoiraning bu she'ri mamnunlik kayfiyatini ochiqdagan. She'rdagi rahmat, tashakkur so'zlarining ishtiroki buning dalili bo'ladi.

Shoira yana bir she'rida:

Balki uzun sochlar bir kun dor bo'lgay,

³ Mamarajabova Z. Ko'rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari. Til va adabiyot ta'limi, 2002 y 2-son

⁴ Г. Асқарова Турналар йўли: шеърлар. — Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. - 32 б.



*Kim bilar bugun do'st erta mor bo'gay,
Iflos bo'lgan joyga tushmas qatim nur,
Ko'ngil tozalarga Xudo yor bo'lgay.*

deya qalbi pok insonlarning ruhiyatini ifodalamoqda.

*Mudom baxtlilardan qilgani uchun,
Meni o'zimdanda ko'p bilgani uchun,
Ko'ksimga har nasaf to'lgani uchun,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.*

*Zamin tegrasida aylanar falak,
Garchi g'am qishida uchdik yaxmalak,
Garchi bir birni deb ming jonlar halak,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.*

*Bazmlar gulladi bazimga kirsam,
Dengizman, daryoi azimga kirsam,
Olamlar egilar ta'zimga kirsam,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.*

*Osmon asradi u parday onamni,
Soch-u kipriklari zarday onamni,
Boshin omon qildi orday otamni,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga*

*Men kimman, u agar himmat qilmasa,
Qadrim yo'q, qadrimni qimmat qilmasa,
Zorim bor mehridan chimmat qilmasa,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.*

*Men undan ayro bir sas edim asli,
Bug'doyin yo'qotgan xas edim asli,
Uning vasli deya mast edim asli,
Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.*

*Mudom baxtlilardan qilgani uchun,
Meni o'zimdanda ko'p bilgani uchun,
Ko'ksimga har nasaf to'lgani uchun,*



*Beadad shukurlar bo'lsin Xudoga.
(Shukrona)*

Shoiraning mazkur she'rida mamnunlik kayfiyati *shukurlar* so'zi orqali reallashgan. Bilamizki, har birimiz o'zimizni baxtli va mamnun his etganimizda “Allohga shukur” iborasini aytamiz. Shu so'zni aytib o'zimizni yanaga yengil va hayotdan mamnun his etamiz. Demak, yuqoridagi she'rda ham *baxt, nafas, mast, bazm, ta'zim, par, zar, himmat, mehr* kabi bir qator so'zlar shukronalik kayfiyatini aks ettirgan.

*Sen bir quchoq gul bilan kelding,
Atirgullar keltirding menga.
Shundan buyon gulga aylanib,
Faqat borgim kelyapti senga.*

*Bahor edi, mast edi dunyo,
Ishq faslida telbaroq edim.
Ko'zlarimga tikilib bir dam,
“Ko'nglingizda bormanmi” deding.*

Yuqoridagi parchadan farqli o'laroq mazkur she'rda shoira mamnunlik kayfiyatini go'zal satrlar orqali ifodalagan. Parchadagi *gullar, atirgul, bahor, ishq, telba* kabi so'zlar ushbu she'rning ma'nosiga ko'tarinki kayfiyat baxsh etgan.

Tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ma'no asosida bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajratish mumkin:

- 1) leksik-semantik munosabatlar;
- 2) leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabatlardir.

Semema tarkibidagi semalar turlarga ega. U mohiyatiga ko'ra dastlab uchga bo'linadi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funksional sema).

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so'zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli, vazifasi bilan bog'liq.



Atash semasi leksema mazmunidagi harakat-holat, narsa- predmet, miqdor, belgini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Masalan, aka leksemasining yuqorida sanalgan barcha semalari – atash semasi.

Bir xil yoki o'xshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada ko'p holda atash semasi bir xil bo'ladi. Masalan, yaxshi, tuzuk, durust, ajoyib yoki yuz, chehra, oraz, turq, aft, bet ma'nodoshlik qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. Yaxshi, tuzuk, durust, ajoyib leksemalarining atash semalari quyidagilar: 1) "belgi"; 2) "barqaror belgi"; 3) "sifat belgisi"; 4) "shaxsiy baho"; 5) "ijobiy"; 6) "ichki-tashqi". Shu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud bo'lib, ular tuzuk leksemasida "me'yordan bir pog'ona past", yaxshi leksemasida "me'yorda", ajoyib leksemasida "me'yordan bir pog'ona yuqori" semalaridir. Yuz, chehra, oraz, turq, aft, bet leksemalarida esa: 1) "inson boshi old tomoniga xos"; 2) "peshonadan iyakkacha bo'lgan qism" semasi – atash semasi. Aytilganidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigmadoshi bilan tekshirilishi lozim. Aks holda, leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim bo'lmagan) semasini farqlashning imkoni bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi brother leksemasining sememasi "qarindosh", "qon- qarindosh", "bir avlod" atash semalariga ega. O'zbek tilidagi aka leksemasida esa bu sema bilan birgalikda "mendan katta" relevant semasi ham bor. Chunki aka leksemasi shu semasi bilan uka leksemasiga qarama-qarshi turadi. Brother leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli "mendan katta/mendan kichik" semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lganligi sababli irrelevantdir. Rus tilidagi kobyła leksemasida "urg'ochi" semasi muhim bo'lib, u o'zbek tilidagi baytal leksemasining ham, biya leksemasining ham muqobili bo'la oladi. Biroq baytal va biya zidlanishida "urg'ochi" semasi emas, "qulunli" (biya leksemasida) va "qulunsiz" (baytal leksemasida) semasi relevant (muhim)dir. Ko'rinadiki, leksema sememasi tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememasini farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, yuz va bet leksemasining ifoda semasi o'zaro qiyosda ochiladi:

yuz – "inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi".

bet – "inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi".

Bu sememalardagi "uslubiy betaraf" (yuz leksemasidagi) va "so'zlashuv uslubiga xos" (bet leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semasidir.

Turq leksemasidagi "salbiy", jamol leksemasidagi "ijobiy" semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, aeroplan leksemasidagi "arxaik", kompyuter leksemasidagi "neologizm", xarseb (olma turi) leksemasidagi "shevaga xos" semasi – qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi.



Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari ingerent konnotativ sema va muhim bo'lmagan ifoda semalari adgerent konnotativ sema deyiladi. Vazifa semasi leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, kitob, daftar, maktab, bormoq kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. Qat'iy, keskin, moviy, qizg'ish leksemalarining vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Shunday qilib, leksemalar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib, kishining turli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi hamda bunday sifatlar alohida leksik-semantik guruhlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan ayolning turli xil kayfiyatini (shodligini, quvonchini, g'am-alamini), ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi. Uslubiy qo'llanishiga ko'ra o'zining siqirligi bilan ajralib turuvchi sintetik shaklli sifat darajalari she'riyatda qo'llansa, analitik shaklli sifatlar esa publitsistik, ilmiy nutq uslublarida ishlatiladi. Demak, Guljamol Asqarovaning she'riyatida sintetik shaklli sifat leksemalar ayol ruhiyatini yuzaga chiqarishda, kitobxonga o'sha ruhiyatni “yuqtirish”da katta ahamiyat kasb etadi.

Alla o'zi aslida bolani uxlatish uchun aytiladigan onalar qo'shig'i. Unda ona qalbining nolalari aks etadi. Bolaning murg'ak qalbida mehr-muhabbat hislari alla orqali yuksaladi. Biroq ushbu she'rda lirik qahramon o'z bolasiga uxlatuvchi emas, uyg'otuvchi alla aytishni orzu qiladi. Nima uchun? Buni she'rni o'qigach bilib olishingiz mumkin. Har qanday ayol qalbida onalik mehri bilan ulg'ayadi, ona bo'ladi, bolasi uchun butun jahonga aylanadi:

*Mening g'amim yig'latguvchimas,
Kuch berar, qalb tig'latguvchimas,
Men bolamga uxlatguvchimas,
Uyg'otguvchi alla aytaman.*

Har onaning ko'nglidan o'tguvchi ruhiy kechinmalar shoiraning mazkur she'rining keyingi misralarida o'z aksini topgan:

*Sohibqiron bo'l, bolam, deya,
Poyingdadir bu olam deya,
Ko'ksimdagi hur nolam deya,
Uyg'otguvchi alla aytaman.*

Biz vatan haqida yozilgan ko'plab bir-biriga o'xshash, siyqa satrlardan zerikkanmiz. Ba'zi shoirlarning vatan haqida ham she'r yozib qo'yishim kerak deya zo'rma-zo'rakilik bilan bitgan she'rlari tufayli bu mavzudagi she'rlarga ishtiyoq susaygan. Chunki soxtalik bilan aytilgan kalom hech qachon dillarga yetib bormaydi. Biroq ushbu she'rda shoira vatanni shunchalar samimiy tarannum etadiki, uni o'qir ekansiz, bu so'zlar yuragingizning



tub-tubiga yo'l olganini tuyasiz. Shoira Guljamol Asqarovaning quyidagi she'rida nafaqat ayolning, balki har bir shaxsning vataniga bo'lgan samimiy ruhiy pafosi sezilib turadi:

*Assalomu alaykum! Ey moviy osmon,
Sen mening muqaddas beshigim Vatan.
Meni porloq kunlar chorlagan zamon,
Dunyoga ochilgan eshigim — Vatan.*

Yurakning tub-tubida bo'luvchi ba'zi tuyg'ularni ta'riflamoqqa so'z topilmaydi. Chunki qanchalar chiroyli, qanchalar yoqimli so'z aytmang, uning nasifligi, shaffofligiga zarar yetkazayotganday bo'lasiz. Shu bois ushbu she'rga ta'rif bermaymiz. Zero, u ta'rifdan tashqarida. Uni faqat o'qish va his qilish mumkin...

*Tongdek yorug' she'rlar yozaman,
Istarasi non kabi issiq.
Yuraklarga kirib boradi,
Yuragimdan boshlangan qo'shiq.*

*Guldek go'zal she'rlar yozaman,
Yorishadi tunlarim tongdek.
Oshiq yigit chin sevgi ila
Yorin yuzin siypalagandek*

Guljamol Asqarovaning quyidagi yana bir she'ri to'laligicha Allohga hamd tarzida yozilgan. Mazkur she'rdagi mamnunlik kayfiyati *yorug', rahmat, baror, tillo taxt va boshqa bir qator so'zlar bilan boyitilgan.*

*Yuzlarimni yorug' qildi Xudoyim,
Dardlarimdan forig' qildi Xudoyim,
Sabrlardan sariq ko'ylak kiydirib,
Bardoshimdan chorig' qildi Xudoyim.*

*Davlat berdi, zahmatidan aylanay,
Zahmat berdi, rahmatidan aylanay.
Peshonamni silab-silab qo'yarman,
Yozib qo'ygan dasxatidan aylanay.*

*To'g'ri, ba'zan sindiradi so'zimni,
Shundan mungi qalqib turar ko'zimni,
To'lganimda to'zg'itmaydi bilaman,*



Chunki o‘zi bergan menga to‘zimni.

*Qayga borsam baroridan berar u,
Eng oxirgi qarorida berar u,
Baxtim yo‘q deb o‘ksimayman, nimam yo‘q,
Xudoyim-ku, bir kun kelib berar u.*

*Shayton kelsa dedim: Bari mehnatim,
Sekingina eslatdi u: Himmatim!
O‘zim-ku bir chumolidan ojizman,
Ololmayman boshimdagi chimmatni.*

Xulosa o‘rnida aytish joizki, favqulotda iste‘dod sohibasi Guljamol Asqarova so‘zda qanchalik qudrat bor ekanligini his qila olgan va bu qudratni bo‘ysundira olgan shoira. Guljamol Asqarova she‘rlarini o‘qir ekansiz, so‘zning mo‘tabarligini qalb qo‘ringiz bilan his qilasz. She‘riyatning badiiy tilida, uslubiy o‘ziga xosliklarida yuqoridagi ruhiyat bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar eng muhim mezonlardan biridir. Agar she‘riy misralar tarkibida ruhiyat bilan bog‘liq vositalardan o‘rinli qo‘llansa, tabiiyki, she‘r xalq qalbidan o‘rin oladi. Tildan mohirona foydalanish, so‘z ummonidan g‘avvos kabi “durri g‘alton” lar terish, so‘zga inja va muqaddas go‘zallik sifatida qarash uning ilohiy qudratini ruhan his qilish shoira badiiy olamining o‘ziga xos belgilaridan biridir. Shoira ijodining ana shu o‘ziga xosligini keyingi boblarimizda ham guvohi bo‘lamiz.